

Fizika-texnika instituti olimlari tomonidan radonometr o'lchov vositasi yaratildi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutida ishlab chiqilgan Radonometrga "O'ZSTANDART" agentligining sertifikati olindi. Bu Institutning mustaqillik yillardagi tarixida milliy o'lchov vositasiga olingan ilk sertifikati bo'lganligi bilan quvonarlidir. Institutda ishlab chiqilgan Radonometr RR-4M o'lhash vositasi havo, suv hamda tuproqda radon gazlarining hajmiy faolligini o'lhashga mo'ljallangan. Bunday o'lchov vositasi sog'liqni saqlash, ekologiya, tog'-kon metallurgiya hamda radiatsion nazoratni baholash sohalarida keng qo'llaniladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING O'LCHASHLAR BIRLILIGINI TA'MINLASH TIZIMI

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi
(**"O'zstandart"** Agentligi)

"O'ZBEKISTON MILLIY METROLOGIYA INSTITUTI" DK

(attestatlashni o'tkazgan yuridik shaxs nomi)

05.37450-2021 - sonli

**O'LCHASH VOSITASINI
METROLOGIK ATTESTATLASH**

A 0006213

SERTIFIKATI



Amal qilish muddati

" 8 " aprel 20 22 y. gacha

Ushbu sertifikat,

"O'ZBEKAKKREDITATSIYA" DK ning O'ZAK.QL.0019-sonli guvohnomasi asosida ishlovchi
metrologik attestatlash Dalolatnomasining raqami, sanasi, Dalolatnomasi kim tomonidan berilgan yoki

"O'zMMI" DK ning 08.04.2021 yil 85/05 raqamli metrologik attestatlash dalolatnomasi asosida
metrologik attestatlash sertifikatining raqami, sanasi, sertifikat bergan milliy idoraning nomi

S.V. Starodubesov nomidagi fizika-texnika instituti (**O'zbekiston**) tomonidan ishlab chiqarilgan,
o'lchash vositasini ishlab chiqaruvchi-tashkilot

ГОСТ 8.526-85 (4.1-4.3.5 bandlari)
me'yoriy hujjat yoki so'rovnomaga qilingan havola

muvofiq "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" DK tomonidan tan olingan,
o'lchash vositasini attestatlagan yuridik shaxs nomi

o'lchash vositalarining davlat reyestrida 05.37450-2021 son bilan ro'yxatga olingan,
RR-4M turidagi Radonometr zavod raqami 001

o'lchash vositasining nomi va belgilanishi

O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llashga ruxsat etilganini tasdiqlaydi.

O'lchash vositasining metrologik tavsiflari ushbu sertifikatning
ajralmas qismi bo'lib hisoblanadigan Ta'rifda keltirilgan.

O'lchash vositasini navbatdagi qiyoslash 2022 yil 8 aprel dan kechikmay o'tkazilsin.
sana

Rahbar



M.O.

Jg

N.A. Raymjanov

" 8 " aprel 20 21 y.

metallurgiya kombinatiga (NKMK) yetkazib berilib, hozirda mamlakatimizning eng yirik korxonasida shaxta va boshqa obyektlarning radiatsion nazoratini amalga oshirishda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. "O'ZSTANDART" agentligining sertifikati Institutga NKMK va boshqa korxonalarga yillik talabnomalar bo'yicha tijorat shartnomalari asosida Radonometrlarni ishlab chiqish va yetkazib berish imkoniyatini taqdim qildi. Ishlab chiqilgan milliy Radonometr ekspluatatsiyada oson bo'lib, Rossiya hamda xorijiy Radonometr analoglaridan kamida 5-6 barobar arzon va texnik xususiyatlari bo'yicha ulardan qolishmaydi.

Shu yil boshida Fizika-texnika instituti hamda Olmaliq kon metallurgiya kombinati o'ttasida institutda takomillashgan Radonometr materiallarda alfa hamda gamma nurlanishlarining kichik faolliklarini o'lchashga mo'ljallangan Alfametr va Gammametr o'lchov vositalarini ishlab chiqish bo'yicha xo'jalik shartnomasi imzolandi. Takomillashgan Radonometr, Alfametr hamda Gammametr kichik o'lchovli (kompakt) hamda onlayn rejimda ishlaydigan bo'lib, Kombinatga 2021-yil oxirigacha yetkazib beriladi.

Institutda o'lchov vositalarini ishlab chiqish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagи "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032 qaroriga muvofiq olib borilmoqda. Ushbu Prezident qarorida, jumladan, Fizika-texnika institutida ilm-fan ulushi ko'p bo'lgan mahsulot namunalarini tayyorlash, laboratoriya va tajriba sinovlarini o'tkazishga mo'ljallangan tajriba-eksperimental uchastkasini tashkillashtirish belgilangan.